

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:

№ _____

“ ” 2022 yil

“TASDIQLAYMAN”

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

_____ **Bozorov O.N.**

“ ” 2022 yil

GEOTEKTONIKA VA GEODINAMIKA

FANINING ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	300000	-	Ishlab chiqarish texnik soxa
Ta'lim sohasi:	310000	-	Muhandislik ishi
Ta'lim yo'nalishi:	5311700	-	Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi (neft va gaz konlari)

Jami o'quv soati: 148 soat

Shu jumladan

	Jami	9-semestr
Ma'ruza	6 soat	6 soat
Amaliy mashg'ulotlar	6 soat	6 soat
Mustaqil ta'lim soati	136 soat	136 soat
Kurs ishi	-	

Qarshi-2022 y

Fanning ishchi o'quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining 202__ yil “__” __ dagi № __ sonli Kengashida tasdiqlangan “Geotektonika va geodinamika” fan dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchilar:

Sh.A.Sultonov

- QMII “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrası katta o'qituvchisi.

S.S.Bo'riyev

- QMII “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrası o'qituvchisi.

Fanning ishchi o'quv dasturi “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrası yig'ilishida (bayon № __, __/__. 2022 y.), Geologiya va konchilik ishi fakulteti uslubiy Komissiyasida (bayon № __, __/__ 2022y.) va institut Uslubiy Kengashida (bayon № __, __/__ 2022y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

QMII O'quv- uslubiy boshqarma

boshlig'i:

Sh.Turdiyev.

QMII Geologiya va konchilik ishi

fakulteti UK raisi:

M.G'ofirov.

“Foydali qazilmalar geologiyasi va

razvedkasi” kafedrası mudiri:

Sh.Turdiyev.

Kirish

Ushbu dastur neft va gaz to'plamlarini nazorat qiluvchi turli ierarxik darajadagi geotektonik strukturalari Yer litosfera plitalarida tarqalishini, ular shakllanishini geodinamik mexanizmlarini, harakat, deformatsiya va kuchlanish maydonlarini, Yer ichki geosferalaridagi jarayonlar, harakatlar va ularning oqibatlari bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi.

Fanning asosiy maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad-talabalarda Foydal qazilmalar geologiyasi va qidirish ishlari (neft va gaz) bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – litosferaning asosiy geotektonik elementlarini, litosfera plitalarining turlarini hamda ular tarkibidagi turli ierarxik darajagi geostrukturalarning xususiyatlarini, strukturalarning harakatlarini, deformatsiyasini va rivojlanishini, tektonik metodlar, tektonik harakat turlari, litosfera plitalari ichidasodir bo'ladigan jarayonlarni, platforma va geosinklinallarni, geotektonik strukturalarning shakllanish geodinamik geodinamik shart-sharoitlarini o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“Geotektonika geodinamika” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- bilimlarning bir butun tizimi bilan o'zaro bog'liqlikda ushbu fanning mazmuni, maqsadi va vazifalarini;

- Yer sayyorasi asosiy sferalaridagi geodinamik jarayonlarni;
- Yer sayyorasining harakatlanishi turlarini;
- Yer po'stidagi harakat va deformatsiya turlarini;
- Yer qobig'ining geologik tarixining davriyligini;
- Yer qobig'ining turli ierarxik darajadagi geotektonik elementlar sistemasini;
- geotektonik gipotezalar va ularning nazariy asoslarini;
- geotektonik va geodinamik izlanish metodlarini;
- qit'a, okean, o'rta okean tizmalarini hosil bo'lishini;
- litosfera plitalarini, ularni chegaralovchi zonalarini xarakterli tomonlarini;
- platformalar tuzilishi, ularning turlarini;
- geosinklinal burmachan mintakalar tuzilishini;
- orogen turlari, ularning tuzilishi va rivojlanishini;
- geotektonik strukturalar rivojlanishini boshqaruvchi harakatlarni;
- geotektonik metodlar turlarini;
- paleotektonik tahlil metodlarini;
- geostruktura elementlarining foydali qazilma konlarini joylashishiga ko'rsatadigan qonuniyatlarini bilishi kerak;

- talaba geotektonik kartalarni o'qish va chiza olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

- talaba loyixalanayotgan maydonning tektonikasini tavsiflash, unga baxo berish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Qo'yilgan vazifalar o'qish davomida talabalarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarida faol ishtirok etishi, adabiyotlar bilan ishlashi hamda mustaqil ta'lim olishi bilan amalga oshiriladi.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Geotektonika va geodinamika” fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, 9-semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy (oliy matematika, fizika, nazariy mexanika), umumkasbiy (umumiy geologiya, strukturaviy geologiya va b.) va ixtisoslik (litologiya va litofatsial taxlil va b.) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Davlat iqtisodiyati rivojlanishi neft va gaz ishlab chiqarish sanoati bilan uzluksiz bog'liq bo'lsa, sanoat rivojlanishi uchun yangi neft va gaz konlarini ochilishi o'ta muhim ahamiyatga ega. Ushbu Geotektonika va geodinamika asoslari fani neft va gaz konlarini nazorat etuvchi strukturalarini ajratishda, uglevodorolarni hosil bo'lgan joylardan ko'chib o'tish jarayonlarni o'rganishda, ularni izlash va razvedka qilish metodlarini yaratilishida ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning “Geotektonika va geodinamika” fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy metodlaridan foydalanish, Yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga ega. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishlab chiqarishdagi namunalar va maketlardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Amaliy mashg'ulotlarda elektron mashqlar va masalalar to'plamlaridan, kompyuterlar yordamida fan buyicha kompyuter o'yinlari, test savol-javoblari, laboratoriya mashg'ulotlarida esa qurilmalar va jihozlarning hamda texnologik jarayon kechishining kompyuterdagi elektron modellaridan, virtual laboratoriyalardan foydalaniladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining

shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy, yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

Ma'ruza mashg'ulotlari

№	Ma'ruzalar mavzulari nomi	Dars soatlari hajmi
IX - semestr		
1	Kirish. Geotektonika va geodinamika fanining maqsadi va vazifalari	2 soat
2	Fanning asosiy bo'limlari; global, regional, zonal va lokal geotektonika, yangi global geotektonika va geodinamika	2 soat
3	Tektonik dislokatsiyalar. Gorstlar, grabenlar, riftlar	2 soat
Jami		6 soat

Ma'ruza mashg'ulotlari axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida jihozlangan auditoriyada guruh, guruhlar oqimi uchun o'tiladi.

Amaliy mashg'ulotlar.

T/r	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Dars soatlari hajmi
IX -semestr		
1	Tektonik xaritalar tushunchasi	2 soat
2	Yerning ichki geosferalari	2 soat
3	Surilmaosti kamarlarini geodinamik shakllanishini Surxondaryo sinklinoriyasi	2 soat
Jami		6 soat

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys stadi" texnologiyasi ishlatiladi, keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali matereallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

Mustaqil ta'lim

№	Mustaqil ta'lim mavzulari.	Dars soatlari hajmi
IX - semestr		
1	Tektonikaning rivojlanish bosqichlari.	3 soat
2	Tektonikaning aloxida izlanish metodlari. Tektonosferaning tuzilashi va tarkibi haqida umumiy tushunchalar.	3 soat
3	Geotektonika va geodinamika asoslari fanining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.	3 soat

4	Litosfera va astenosferani ajratish metodlari. Izostaziya ro'yobga chiqishi.	4 soat
5	Litosfera plitalarining yer sharida joylashishi, o'lchamlari va qalinliklari.	3 soat
6	Litosfera plitalarining to'qnashishi natijasida yuzaga keladigan holatlar.	3 soat
7	Riftogeniz tushunchasi. Qit'a riftogenizi. Rift tizimlarining reliefi, strukturalari, va cho'kindi formasiyasi. Geofizik tavsifi. Okeanik riftogeniz.	3 soat
8	Subduksiya rejimi. Subduksiya zonalarining reliefda namayon bo'lishi.	3 soat
9	Subduksiya natijasida o'ziga xos bo'lgan tektonik relief.	3 soat
10	Hozirgi zamon riftlar ichi tektonik va magmatik faollikning ko'rinishi. Planetar darjlik. Chuqur va yoriqlar.	4 soat
11	Tektonikadagi oqimlar.	3 soat
12	O'rta –okean tizmlari.	3 soat
13	Burmalangan mintaqalarning umumiy tavsifi.	4 soat
14	Qadimgi platformalarning poydevorlarining ichki tuzilishi.	3 soat
15	Geologiya tarixida tektonik gipotezalar. Ularning paydo bo'lish sabablari, mohiyati va o'z vaqtida asosliigi.	4 soat
16	Mantiya va yadro tushunchalari. Maxorovich chegarasi.	3 soat
17	Litosfera plitalarining astenosfera yuzasiga surilishi.	4 soat
18	Astenosferaning xususiyatlari	4 soat
19	Spreading	4 soat
20	Subduksiya	4 soat
21	Obduksiya	4 soat
22	Kolliziya	4 soat
23	Kontinental riftlar	4 soat
24	Subduksiya zonalarining asosiy turlari va tektonik holati.	4soat
25	Subduksiya va magmatizm.	4 soat
26	Transform yoriqlar. Mikroqit'alar.	4 soat
27	Burmalangan mintaqalarning rivojlanishi.	4 soat
28	Burmalangan mintaqalarning ichki tuzilishi.	4 soat
29	Platformalarning rivojlanish bosqichlari	4 soat
30	Geodinamika mazmuni va tushunchalari	4 soat
31	Yer va yer qobig'ining asosiy geotektonik elementlari	4 soat
32	Qit'a va okean turdagi qobiqning tuzilishi va elementlari	4 soat
33	Litosfera plita va ularning turlari	3 soat
34	Neotektonika davri va uning ahamiyati.	3 soat
35	Strukturalarni hosil bo'lish mexanizmlarini o'rganish	4 soat
36	Chegaraviy strukturalar	3 soat
37	Tektonik xarita turlari va shartli belgilari	4 soat
38	Geotektonika sikllari va geologik tarix bosqichlari	3 soat

Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish me'zonlari

Talabalar bilimini nazorat qilish Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tavsiya etilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom (Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 ysh 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimini belgilaydi. Nizom O'z.R.OO'MTVning 2018 ysh 9 avgustdagi 19-2018-son buyrugi bilan tasdiqlangan va O'zbekistan Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 26 sentabrda 3069-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) asosida amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat - semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida o'tkaziladi.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Yakuniy nazorat - turi semestr yakunida tegishli fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" yoki "test" shaklida o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash mezonlari

Ishchi o'quv rejaga muvofiq fan bo'yicha 9-semestrda 3 ta (6 soat) ma'ruza mashg'uloti, 3 ta (6 soat) amaliy mashg'uloti rejalashtirilgan.

Fan bo'yicha semestrda ON kafedra yig'shishi va fakultet Kengashi qaroriga asosan belgilangan sanada o'tkaziladi.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Oraliq nazorat turi bo'yicha 3 va undan yuqori baho to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirishiga ruxsat beriladi.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

a) talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning

(mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - **5 (a'lo) baho:**

б) talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - **4 (yaxshi) baho:**

в) talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - **3 (qoniqarli) baho:**

г) talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda - **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

Maksimal baho-5

Saralash baho-3

№	Nazorat turi	Baho	Nazorat turi bo'yicha	
			maksimal baho	saralash baho
1	Oraliq nazorat	5 (a'lo) 4 (yaxshi) 3 (qoniqarli) 2 (qoniqarsiz)	5	3
2	Yakuniy nazorat	5 (a'lo) 4 (yaxshi) 3 (qoniqarli) 2 (qoniqarsiz)	5	3

Fan bo'yicha talabalarni baholash natijalarini qayd qilish

Talabalar bilimini baholash ushbu fan bo'yicha professor-o'qituvchi tomonidan Talabalarning fanni o'zlashtirishini hisobga olish jurnalida (bundan buyon matnda jurnal deb yuritiladi) qayd etib boriladi. Professor-o'qituvchi qo'shimcha ravishda talabalar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.

Professor- o'qituvchi jurnalda talabaga qo'yilgan baholarni shu kunning o'zida qayd etib boradi. Agar talabaning bilimini baholash yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, bunda professor-o'qituvchi talabalarning natijalarini 3 kundan ko'p bo'lmagan maddatda jurnalga qayd etishi lozim.

Nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "3" (qoniqarli) yoki "4" (yaxshi) yoxud "5" (a'lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Talaba nazorat turi o'tkazilgan vaqtda uzrli sabablarsiz qatnashmagan xollarda jurnalga "0" belgisi yozib qo'yiladi.

Jurnal ushbu fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi, kafedra mudiri va fakultet dekani tomonidan imzolanadi hamda fakultet dekanatida saqlanadi. Jurnalning saqlanishi uchun fakultet dekani mas'ul hisoblanadi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari.

Asosiy adabiyotlar

1. Хаин В.Е., Ломизе М.Г. Геотектоника с основами геодинамики: М. КДУ, 2005.
2. Гаврилов В.П. Геотектоника, М., РГУ нефти и газа, 2005.
3. Бакиров Э.А. и др., Геология нефти и газа, М, Недра, 1990.
4. Richard C. Selley. Department of Geology Imperial College. Elements of petroleum geology. Sekond Edition. London, United Kingdom-1998.
5. Sultonov.Sh.A. Geotektonika. O'quv – uslubiy qo'llanma Qarshi – 2014
6. Sultonov.Sh.A, Ochilov.I.S. Geotektonika va geodinamika. O'quv-uslubiy qo'llanma. Qarshi – 2019 yil.

Qo'shimcha adabiyotlar

7. Abidov A.A. Dunyo neftgazli hududlari va akvatoriyalari. Toshkent, Sharq, 2009.
8. Умурзаков Р.А. Региональные особенности поля тектонических напряжений отдельных сейсмоактивных областей Западного Тянь-Шаня // Проблемы сейсмологии Узбекистана. – Ташкент. 2007. № 4 –С. 133-137.
9. Гаврилов В.П. Общая и региональная геотектоника., М., Наука,1986.
10. Ахмеджанов М.А. Геотектоника, маърузалар тўплами, ТДТУ, Т, 1995.
11. Adilov.B.F. Regional geologiya va geotektonika. O'quv qo'llanma. - Toshkent.: LESSON PRESS 2015.

Internet manbalari

12. Геология нефти и газа – www.geoinform.ru
13. газовая промышленность – WWW.iournal.ru
14. www.lex.uz - O'zR Adliya vazirligi sayti.
15. www.bilim.uz - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti
16. www.ziyo.edu.uz - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.
17. www.Ziyo.net
18. www.oilandgas.com.
19. www.oilandgaslibrary.com.
20. www.sanoatktn.uz – O'zR Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi sayti.

